

## ZAMONAVIY FRANSUZ FRAZELOGIYASIDA OBRAZLILIK VA EMOTSIONAL-EKSPRESSIV KOMPONENTLAR TALQINI

Ulug'bekova Shaydo Ulug'bek qizi

*O'zMU ilmiy tadqiqotchisi*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada frazeologik birliklarning obrazlilik va emotsional-ekspressivligini ko'rsatuvchi hamda xalqning madaniyati, urf-odati, jamiyatning o'y-fikri, intilishi, his-tuyg'ularini ifodalovchi muhim vosita ekanligi tahlil qilinadi. Shu bilan birga mazkur maqolada bu sohada izlanish olib borgan bir qancha tilshunos olimlarning fikrlari va izlanishlari zamonaviy tilshunoslikda alohida ahamiyat kasb etishi to'g'risida so'z yuritilgan.*

**Kalit so'zlar:** *frazeologik birliklar, tilshunoslik, iboralar, leksema, frazeologizmlarning tasnifi.*

**Abstract:** *In this article, it is analyzed that phraseological units are an important tool that shows imagery and emotional-expressiveness and expresses people's culture, customs, thoughts, aspirations, and feelings of society. At the same time, it was said that the opinions and researches of several linguists who conducted research in this field are of special importance in modern linguistics.*

**Keywords:** *phraseological units, linguistics, phrases, lexeme, classification of phraseology.*

**Аннотация:** *В данной статье анализируется, что фразеологизмы являются важным средством, проявляющим образность и эмоционально-выразительность и выражающим культуру, обычаи, мысли, стремления и чувства общества народа. При этом было сказано, что мнения и исследования ряда лингвистов, проводивших исследования в этой области, имеют особое значение в современной лингвистике.*

**Ключевые Слова:** *фразеологизмы, лингвистика, словосочетания, лексемы, классификация фразеологий.*

### KIRISH

Kishilar til vositasida o'zaro aloqaga kirishar ekan, til birliklari turli mazmundagi fikrlarni nutq qaratilgan shaxsga yetkazish, uni harakatga yo'naltirish, ta'sir etish vazifalarini bajaradi. Til tizimining muhim darajalaridan dunyoqarash, jamiyat turmush tarzi, fe'l-atvori, odamlar xulqini ochib beruvchi vosita bu – frazeologizmlar hisoblanadi. Shu bilan birga ibora yordamida o'sha xalq haqida ko'pgina ma'lumotlarga ega bo'lish mumkin. Frazeologizmlar so'zlardan farqli holda obyektiv reallikdagi muayyan voqea-hodisani nomlash uchun emas, balki unga nisbatan modal munosabatni

ifodalash maqsadida yuzaga keladi va insonning jismoniy hamda ruhiy tabiatini ko'rsatishga xizmat qiladi. Shuningdek, insonning ijtimoiy hayotdagi o'рни, his-tuyg'ulari, o'y-fikrlari, faoliyatini baholash va munosabatini ifodalashda frazeologizmlar muhim vositadir. Va ayni shu vosita orqali etnomadaniy meyorlar, xalq mentaliteti avloddan avlodga o'tib boradi. Inson xatti harakati, tushunchasi fanning har bir tarmoqlari sotsiologiya, psixologiya, madaniy antropologiya, lingvistikaning tadqiqot obyekti hisoblanadi ammo u tilshunoslikda yetarlicha o'rganilmagan.

### ADBIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Turkiyshunoslikda, jumladan, o'zbek tilshunosligida ham frazeologizmlar Sh.Rahmatullayev, I.Qo'chqortoyev, A.Mamatov, B.Yo'ldoshev kabi olimlar tomonidan atroflicha tadqiq etilgan. Albatta, bu tadqiqotlar frazeologiya sohasida erishilgan muvaffaqiyatlardir [1].

Har bir tilda bo'lgani kabi fransuz tilida ham frazeologik iboralar muhim tadqiqot mavzusi bo'lib, shu paytgacha ko'plab tilshunoslar tomonidan haligacha o'rganib kelinmoqda. Fransuz tili ham frazemalarga boy sanaladi.

Fransuz frazeologiyasi sohasida faoliyat yuritayotgan tilshunos olimlar ko'p. Ular orasida Jan-Klod Anskombre, Patrik Dendeyl, Silven Auroux, Winfred P. Leman va boshqalarni keltirishimiz mumkin. Bu tilshunoslar fransuz tilidagi turg'un iboralar, maqollar va frazeologiyaning boshqa jihatlarida tadqiqot olib borgan. Shveytsariyalik tilshunos Sharl Balli birinchi bo'lib "frazeologiya" atamasini lingvistik termin sifatida tilshunoslikka olib kirgan (1909), bunda har bir so'z qisman yoki to'liq individual ma'nosini yo'qotadi, so'z birikmalari alohida ma'no anglatadi. Keyinchalik frazeologiya atamasi tilshunoslikning alohida sohasi sifatida shakllanadi.

Fransuz tilidagi iboralar bilan qiziqadigan bir qancha chet el tilshunoslari bor. Ular orasida maqollar bo'yicha mutaxassis Volfgang Miederni, turg'un iboralar sintaksisi ustida ishlagan Anatoliy Lyovinni, shuningdek, leksik pragmatikani o'rgangan Bernard Kemadani keltirishimiz mumkin. Bu tadqiqotchilar o'z ona tillari va o'z til an'alaridan qiziqarli nuqtai nazarlarni taqdim etish orqali fransuz frazeologiyasi haqidagi tushunchalarni boyitishga hissa qo'shgan.

Xuddi shuningdek, M.Mirzayev, S.Usmonov, I.Rasulovlarning "O'zbek tili" va H.Abdurahmonov, E.Shodmonovlarning "O'zbek tili" nomli kitoblarida frazemalar uch tipga ajratilgan bo'lsa [2,11], H.Jamolxonov ham konspektiv kursida frazemalarni yuqoridagi singari uchga ajratadi [3], M.Asqarova va K.Qosimovalar bilan hamkorlikda yozgan darslikda frazemalar faqat ikki tip (frazeologik butunlik va frazeologik chatishma)ga ajratiladi [4], O.Azizov va A.Safayevlar bilan hamkorlikda yozilgan qo'llanmada esa frazemalar semantik

jihatdan bunday tiplarga umuman ajratilmaydi, balki ular orasidagi sinonimiya, omonimiya, polisemiya, antonimiya hodisalari haqida ma'lumot beriladi [5].

### MUHOKAMA VA NATIJALAR

Frazeologiya bu tilshunoslikning mustaqil bir shoxobchasi bo'lib, u so'z birikmalarini (ya'ni turg'un, obrazli, motivlashgan, ikki yoki undan ortiq komponentli ko'chma ma'noga ega bo'lgan so'z birikmalari)ni o'rganadi. Frazeologik birliklar ikkiga bo'linadi; erkin so'z birikmalari va turg'un so'z birikmalari (frazelogizmlar)ga bo'linadi. Erkin so'z birikmalari nutq jarayonida bevosita hosil qilinsa (le cahier de mon ami, un jeu intéressant, le paysage magnifique) turg'un so'z birikmalari tayyor holda bo'lib, leksik birliklar sifatida oldindan yasalgan bo'ladi.

Frazeologik birlik tarkibi va tuzilishi jihatidan barqaror, leksik jihatdan bo'linmas va yaxlit ma'noli, alohida leksema (lug'at birligi) vazifasini bajaruvchi so'z birikmasidir. Frazeologik birliklar, ularning integral ma'nosi (odatda majoziy) ularni tashkil etuvchi so'zlarning individual ma'nolari bilan u yoki bu darajada bog'liq bo'ladi. Frazeologizmlar bir necha so'zlardan tashkil topgan so'z birikmalarining ko'chma ma'nosini qayta ko'rib chiqish natijasida paydo bo'lgan. Frazeologiya semantika, grammatika, leksikologiya, fonetika, morfologiya, stilistika, etimologiya kabi fanlar bilan bir qatorda zamonaviy tilshunoslik nazariyasi va tilshunoslik fanida muhim o'rin tutadi

Frazeologizmlar so'zlar kabi shakl va ma'no butunligiga ega, chunki so'zlar tovushlardan tarkib topgani kabi, frazemalar ham so'zlardan tarkib topadi: ko'ngli bo'sh – rahmdil, boshi osmonga yetdi – xursand kabi. Lekin frazemalar tarkibidagi so'zlar o'z ma'no mustaqilligiga ega emas. Umumiy ma'no ibora tarkibidagi so'zlar yig'indisining ko'chma ma'nosidan kelib chiqadi.

Ko'pgina tilshunoslar frazeologik iboralar faqat ikki so'zdan ortiq bo'ladi degan fikrlarni bildiradilar. Ammo kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, frazeologik iboralar ikki, uch va undan ortiq so'zlardan iborat bo'ladi. Ammo ayrim tilshunoslar bir so'zdan iborat iboralar ham bor deb fikr yuritadilar. Jumladan, professor A. Jafarovning fikricha bir so'zdan iborat iboralar idiomatik iboraning eng yuqori taraqqiyot bosqichida hosil bo'ladi. Bu turdagi iboralar qo'shma so'z yoki yakka so'z bilan ifodalanadi, ular to'g'ridan – to'g'ri fikrni anglata olmasligi jihatdan ham qo'shma so'zlardan farqlanadi. To'g'ri bir so'z orqali ham idiomatik ma'no anglashiladi. Lekin bunday so'zlarni ibora deyish qiyin. Chunki ibora so'zlar birikmasidan iborat bo'lishi kerak. Bu haqda V. V. Vinogradov, A. Abakumov, A. Shaxmatovlarning fikrlari qimmatga sazovordir. [6].

Idiomatik soʻzlar faqat yolgʻiz soʻzlardangina tashkil topib, idiomatik maʼno anglatadi. Lekin ibora aks ettirgan xususiyatlarni anglatmaydi. Akademik V.V. Vinogradovning aytishicha, frazeologik birliklarning taraqqiyoti frazeologik butunlikdan boshlanib, frazeologik qoʻshilmalarga aylanishi kerak. Frazeologik butunlikdan frazeologik chatishmalar, keyinchalik esa frazeologik qoʻshilmalarga taraqqiy etib borishi kerak. Shu fikrga asoslanib Sh. Raxmatullayevning “idiomatik soʻzlar frazeologik qoʻshilmalar negizida vujudga keladi” degan fikrlari asoslidir.

Frazeologizmlar yaʼni iboralarga taʼsir koʻrsatuvchi omillardan yana bir bu tarjima adabiyot hisoblanadi. Turli tillarda va turli xalqlarga mansub asarlarni oʻzbek tiliga tarjima qilishda ayrim frazeologizmlar maʼlum maʼnoda oʻzgarishga uchrashi mumkin, shuning uchun ham frazeologizmni tarjima qilish katta mahorat talab etadi. Iboralarni toʻgʻridan-toʻgʻri tarjima qilish maʼnoning buzilishiga olib keladi

Y.D.Pinxasov oʻz metodik qoʻllanmasida oʻzbek tili [7] frazeologizmlarini tasnif qilishda V.V.Vinogradov tasnifini asosga olib, ularni uchga (frazeologik chatishma, frazeologik birlashma, frazeologik qoʻshilmalarga) boʻladi. Lekin farq shundaki, Y.D.Pinxasov frazeologik birlashma mazmunini juda kengaytirib, uning doirasiga obrazli iboralar, metaforik ifodalar, maqollar, aforizmlar, terminologik xarakterdagi iboralar, shtamplashgan iboralar va laqablar kabi barqaror soʻz birikmalarini kiritadi [8]. Shu asosda olim FBlarga quyidagicha taʼrif beradi: “Komponentlari bir qolipga kirib, koʻp zamonlar barqaror boʻlgan, koʻpincha koʻchma, baʼzan toʻgʻri maʼnoli boʻlib, gapda butunligicha bir vazifani bajaradigan soʻzlar bogʻlanmasiga frazeologik birliklar deyiladi” [9]

## XULOSA

Shuni mamnuniyat bilan taʼkidlash lozimki, mamlakatimizda oʻzbek frazeologiyasi fanining asoschisi sifatida tan olingan, atoqli tilshunos olim, prof. Shavkat Rahmatullayevning Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni bilan 2005 yilda “Buyuk xizmatlari uchun” ordeni bilan taqdirlanishi mustaqillik yillarida ziyolilarga koʻrsatilayotgan yuksak eʼtiborning yorqin dalilidir [10, 12, 13]. Yana bir yirik frazeolog olim Abdugʻafur Mamatov hozirgi kunlarda Oliy Majlis qonunchilik palatasining deputati sifatida samarali faoliyat koʻrsatmoqda. Shunisi muhimki, frazeologiya faniga doir yangicha ilmiy nazariy qarashlar keyingi yillarda yaratilayotgan darslik va oʻquv qoʻllanmalaridan ham mustahkam oʻrin olmoqda.

“Oʻzbek tilshunosligi tarixi” asarida taʼkidlanishicha, mustaqillik yillarida “oʻzbek frazeologiyasining yangi muvaffaqiyatlarga erishuvida B.Yoʻldoshev, Abdimurod Mamatov va Abdugʻofur Mamatovlarning xizmatlari katta boʻldi.

В. Yo'ldoshev frazeologizmlarning konnotativ ma'nolari, badiiy tasvir vositasi sifatida imkoniyatlarini atroflicha yoritib berdi. Abdimurod Mamatov frazeologik norma muammosini ko'tarib chiqdi va frazeologik norma hamda frazeologik variant o'rtasidagi munosabatni ko'rsatib berdi. Abdug'afur Mamatov esa, o'zining qator asarlarida frazeologik shakllanish muammolarini o'rta qo'ydi va uning paydo bo'lish omillarini yoritib berdi. Frazeologizmlarning muhim farqlovchi belgisi mazmuniy qayta shakllanish ekanligini ko'rsatdi.

#### ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Йўлдошев В. Ўзбек тилида фразеологизмларнинг услубий ва прагматик имкониятлари, - Самарқанд СамДУ нашри, 2002. --- 37 б.
2. Мирзаев М., Усмонов С., Расулов И. Ўзбек тили. - Тошкент: Ўқитувчи, 1970. – Б. 49;
3. Жамолхонов Х. “Ҳозирги ўзбек адабий тили”дан методик кўрсатмалар ва конспектив курс. 1-қисм. - Тошкент: 1979. – Б. 41-43.
4. Асқарова М., Қосимова К., Жамолхонов Х. Ўзбек тили. - Тошкент: Ўқитувчи, 1989. – Б. 22-24.
5. Азизов О., Сафаев А., Жамолхонов Х. Ўзбек ва рус тилларининг киёсий грамматикаси (фонетика, лексика, морфология ва синтаксис). - Тошкент: Ўқитувчи, 1986. – Б. 66-71.
6. Mamatov A.E.”O‘zbek tili frazeologizmlarining shakllanishi.”-T.:1997.- B.37.
7. Пинхасов Я.Д. Ўзбек тили фразеологияси ҳақида. - Тошкент, 1957. – Б. 12-25.
8. Пинхасов Я.Д. Ҳозирги ўзбек адабий тили (лексикология ва фразеология). - Тошкент: Ўқитувчи, 1969. – Б. 55-65.
9. Пинхасов Я.Д. Ўзбек тили фразеологиясининг баъзи бир масалаларига доир // Фразеология масалалари, СамДУ асарлари, янги серия, 106-чиқиши. - Самарқанд, 1961. – Б. 109
10. Шавкат Раҳматуллаев. Атоқли тилшунос (илмий мақолалар тўплами). – Тошкент: Университет, 2006. – Б.
11. Абдурахмонов Х., Шодмонов Э. Ўзбек тили. - Тошкент: Ўқитувчи, 1982. – Б. 23-24.
12. Жўрабоева М., Қахҳорова Х. “Устоз” каломининг айни тимсоли // “Тил ва адабиёт таълими”, 2006. № . – Б. 90-94.

13. Бегматов Э., Йўлдошев Б. Йирик тилшунос олим ва устоз // Ўзбек тилшунослиги масалалари. Илмий мақолалар тўплами. – Самарқанд: СамДУ нашри, 2007. – Б. 4-8.
14. Bobokalonov, O. (2016). Erudition culturelle de la France (Fransiya madaniyatshunosligi). *O'quv qo'llanma, Buxoro Matbuot va axborot boshqarmasi "Durdona" nashriyoti.–Buxoro.*
15. Bobokalonov, O. (2020). Linguo-Cultural Peculiarities of the Phraseological Units with Pharmacophytonyms Components. *International Journal of Progressive Sciences and Technologies, 23(2), 232-235.*
16. Bobokalonov, O. (2022). Avtoreferat: Fransuz va o'zbek tillari shifobaxsh o'simliklar terminosistemasining lingvomadaniy va lingvokognitiv xususiyatlari. *Bukhara State University.*
17. Bobokalonov, O. (2023). FRANSUZ ZAMONAVIY FRAZELOGIYASIDA LINGVOKULTUROLOGIK SHIFOBAXSH FITONONIMLAR. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz), 31(31).*
18. Bobokalonov, O. (2023). FRENCH SHIFONEMAS IN PHRASEOLOGICAL CONSTRUCTION ON HISTORICAL SOURCES. *АСТА NUUZ (O'zMU Xabarlari).*
19. Bobokalonov, O. (2023). Les phytophraséologismes ou phytophrasèmes. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz), 31(31).*
20. Bobokalonov, O., & Akhrorova, R. (2023). SHIFONEMAS IN PHRASEOLOGICAL UNITS RELATED TO THE PERIOD OF YOUTH. *Scientific journal of the Fergana State University, (6-TOM), 44-44.*
21. Djafarova, D., Nodira, Y., & Zulfiya, A. (2022). Socio-Cultural Memory And Its Reflection In French Phraseology. *Journal of Positive School Psychology, 2883-2889.*
22. Ilhomovna, D. D., & Ostonovich, B. O. (2024). Interaction of Language Games in the Articulation of “Historical Memory” Within French and Uzbek Phraseology. *American Journal of Language, Literacy and Learning in STEM Education (2993-2769), 2(1), 348-354.*
23. Ilhomovna, D. D., Ostonovich, B. O., & Ergashovna, Y. N. (2024). Contemporary Usage of Archaic Phraseological Units Expressing “Historical Memory” In Uzbek and French Languages. *American Journal of Language, Literacy and Learning in STEM Education (2993-2769), 2(2), 371-377.*
24. Ilhomovna, D. D., Ostonovich, B. O., & Yakubov, J. A. (2024). Archaic Phraseological Units as Windows into “Historical Memory” in French and Uzbek Linguistic Traditions. *American Journal of Public Diplomacy and International Studies (2993-2157), 2(1), 163-169.*

25. Ilxomovna, D. D. (2021). FRANSUZ VA O 'ZBEK FRAZELOGIYASIDA "TARIXIY XOTIRA" NI IFODALASHDA TIL O 'YINLARINI O 'ZARO TA'SIRI (AHAMIYATI). *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 1(1), 255-259.
26. Ilxomovna, D. D. (2022). The emergence of the concept of "historical memory" in linguistics and the history of its socio-cultural formation. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 12(3), 169-173.
27. Ostonovich, O. B. (2020). Specific features of phraseological units. *International Journal on Integrated Education*, 3(11), 192-195.
28. Rahmonova, G., & Djafarova, D. (2021, April). EXPLANATION OF THE TERM "NEOLOGISM" IN LINGUISTICS. In Конференции.
29. Shukhratovna, D. L. (2024). Discours De Conte De Fées Et Sa Classification. *American Journal of Science on Integration and Human Development (2993-2750)*, 2(2), 111-119.
30. Shukhratovna, D. L., & Djafarova, D. I. (2024). Histoires, Style Et Contenu Des Contes De Fées D'après «Mille Et Une Nuits». *Best Journal of Innovation in Science, Research and Development*, 3(2), 735-742.
31. Яхшибоева, Н. (2023). ТАРЖИМА ЖАРАЁНИДА МАДАНИЯТЛАРАРО МУЛОҚОТНИНГ СОЦИОЛИНГВИСТИК ХУСУСИЯТЛАРИ. Академические исследования в современной науке, 2(17), 165-169.
32. Яхшибоева, Н. (2023). ТУРИСТИЧЕСКИЙ ДИСКУРС КАК ОДИН ИЗ ОСОБЫХ ВИДОВ ИНСТИТУЦИОНАЛЬНОГО ДИСКУРСА. *International Bulletin of Applied Science and Technology*, 3(6), 879-884.